

## INTERNET JURNALISTIKASIDA MEDIAMATNLARNING KO'RINISHLARI VA TARKIBI

*Ibrohimova Aziza Tohirovna*

*O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti*

*Bosma OAV jurnalistikasi yo'nalishi*

*4-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Internet jurnalistikasida mediaviy matnlarning uzatilishida yana bir yangi tushuncha mavjud. Bu – storitellingdir. Hozirda yozuvchi va jurnalistlar o'rtasida urf bo'layotgan mazkur atama ingliz tilidan kirib kelgan bo'lib, "hikoya qilish" ma'nosini anglatadi. Ammo hikoya qilish oddiy biror voqeani so'zlab berish emas, balki o'z o'quvchilaringizni aynan siz bilan birgalikda ana shu voqea ichida bo'lishga erishish demakdir.

**Kalit so'zlar:** Internet jurnalistikasi, axborot, longrid, reportaj, janr

Internet jurnalistikasida auditoriyaga axborotni zamonaviy multimedia texnologiyalaridan foydalanib uzatilishi mediamatn tushunchasini yuzaga keltiradi va u axborotni taqdim etishda yangi terminlarni paydo qiladi. Ta'kidlanganidek, matn axborotni ifodalaydi, tahlil etilayotgan yangi tushunchalar mediamatn ko'rinishlari sifatida baholanadi. Demak, internet jurnalistikasida yangi tushuncha hisoblanuvchi longrid usuli mediamatnning asosiy ko'rinishidir.

**Longrid** – ma'lumotlar jurnalistikaning ajralmas qismi sifatida bugungi kunda jahon jurnalistikasida tan olingan yo'nalishlardan biri. Mazkur axborot uzatish texnologiyasi dolzarb mavzularni yoritishning eng qulay va ta'sirchan shakllaridan biridir. Longrid (ing. "long read" – uzoq o'qish) – bu hajmli axborotni internetda uzatishning qulay usuli.

Auditoriya ko'p sonli ma'lumotlar ichidan birinchi bo'lib o'ziga qulay, ixcham materialga ko'z yugurtiradi. Longrid matn bilan birgalikda aynan shu mavzudagi videorolik, infografika, taqdimot, fon beruvchi musiqa, suratlar, iqtiboslar jamlangan material hisoblanadi. Longridda mantiqiy bog'liqlik, qismlarining (video, audio, infografika va hokazo) uyg'unligi – illyustrativ qator, shrift, ranglarning hajmi va sonining bir xilligi muhim. Longrid bir butun hikoya sifatida qabul qilinishi lozim. Bunda materialingizni ochgan foydalanuvchi yoritilayotgan mavzuning ichiga kirishi lozim. Longridning yana bir xususiyati bor. Bu axborotni xilma-xil tarzda namoyish etish bilan birgalikda, ko'tarilayotgan masalani har tomonlama tahlil etishdir. Bu haqiqiy yangi ko'rinishdagi tahliliy materialdir. Longrid muallifining maqsadi – global iqlim o'zgarishi haqida umumiy tushuncha berish bilan birgalikda, foydalanuvchi hududida bevosita havo isishi, ifloslanishi, uning oqibatlari, aholining moslashuvi

xususida qiziqarli hikoya qilish, bir xil tarzda chaynalgan, ammo dolzarb mavzuni mutlaqo o'zgacha nuqtai nazardan uzatishdir.

Mazkur tushuncha ham bir necha turga ajratib o'rganiladi va uning birinchisi ryeportaj longriddir.

Reportaj o'zining belgilari bilan axborot janrlarning barchasiga (axborot berish, hikoya qilish, to'g'ri nutq, bo'yoqli chekinish, personajlarni tasniflash, tarixiy chekinish va boshqalar) mos keladi. Reportaj janriga quyidagicha ta'rif berish mumkin. Reportaj – jurnalistikaning muhim janrlaridan biri hisoblanib, sodir bo'lgan muayyan voqea, hodisa, vaziyat, jarayonning bevosita jurnalist ishtiroki va kuzatuvi orqali tasvirlab berishi, ommani shu voqelikdan kengroq xabardor qilishidir. Reportajning predmeti – sodir bo'lgan voqea-hodisadir. Reportajning asosiy xususiyati voqea, hodisa, jarayon, vaziyatni reportyorning shaxsan ishtirokida aniqlik, hujjatlilik, voqelikni qanday bo'lsa, shundayligicha yoritilishi bilan belgilanadi. Reportajning metodlariga informasion janrlarga taalluqli (ma'lumotlarni yig'ish, kuzatish, faktlarni qiyoslash, tahlil, savollar berish, qisqa dialog, ishtirokchilar guvohligida sodir bo'lgan voqea rivojini bayon qilish kabi) barcha usullar kiradi. Bu usullarning ichida kuzatish uslubi yetakchilik qiladi.

Reportajning turlari. Reportaj voqelikning rivoji va uning natijalarini ketma-ketlikda hikoya qilinishi, sodir bo'lgan hodisaning dolzarbligi, jamiyat uchun qanchalik ahamiyatga molikligi, mavzuning rang-barangligiga qarab voqeband, mavzuli va muammoli turlarga bo'linadi<sup>1</sup>. Reportajli longrid tayyorlashda janr xususiyatlaridan farqli o'laroq, muallif "men"iga urg'u bermasligi lozim. Chunki muallif voqea qahramoni emas, balki hikoya qiluvchi, xolos. Uning asosiy vazifasi ko'rganlarini shunday tasvirlab berishi kerakki, o'quvchi ularni o'z ko'zi bilan ko'rgandek his qilishi lozim.

Longridning yana turi ryekonstruktor longrididir. Bunday matyerial ma'lum bir voqelikni qayta qurish, global iqlim o'zgarishi bilan bog'liq mavzularni tahlil etish, uning sabablari va oqibatlarini aniqlashdan iborat. Longridning bu turida fon musiqasi, videoqo'shimchalar muhim rol o'ynab, material o'quvchisining kayfiyatini shakllantiradi.

Uchinchi tur portret longridi (people stories) hisoblanadi. Mazkur turga intervyular, ocherklar, biografik lavhalar kiradi.<sup>2</sup> Mazkur turdagi longridning asosiy vazifasi global iqlim o'zgarishidan jabrlangan qahramonni ko'rsatish, muammo oqibatlariga moslashayotgan shaxsning hayotiy tamoyillari, masalaga qarashlarini tahlil etib berishdan iborat. Bunday materialning asosiy jihatlaridan biri yuqori sifatli, bir-biriga mantiqan bog'liq bo'lgan illyustrativ qatorning mavjudligidir.

<sup>1</sup> <https://www.overclockers.ru/softnews/52650/Mini>

<sup>2</sup>Пишем лонгрид, который 100% дочитают до конца // [https://checkroi.ru/blog/chto-takoe-longrid-i-kak-ego-sdelat/#Vidy\\_longridov//](https://checkroi.ru/blog/chto-takoe-longrid-i-kak-ego-sdelat/#Vidy_longridov//)

Longrid yaratish haqida N.Qosimova tadqiqotida quyidagicha tavsiyalar beriladi:<sup>3</sup> agarda siz endigina jurnalistika sohasiga qadam qo'yayotgan bo'lsangiz, longrid siz uchun emas. Chunki uning matni oddiy jurnalistik matndan biroz farq qiladi. Matn o'z tarkibi bo'yicha murakkabdir. Agarda matning boshida maqola singari lid bo'lsa, uning davomi bevosita audio yoki video lavha yoxud intervyu bilan davom etadi. Keyingi qismda matn videolavhaning uzluksiz davomi bo'lishi lozim. Fakt va dalillar tahlili, statistik ma'lumotlarning ko'pligi, qahramonlarning videointervyusi va hokazo. Demak, siz longrid tayyorlashga ahd qildingiz. Materialni tayyorlashdan oldin mavzu bilan yaxshilab tanishing. Tanlagan bir necha qahramonlaringizning mavzu yuzasidan fikrini o'rganing. Iloji boricha bir-biriga qarama qarshi fikrlarni yig'ishga harakat qiling. Turli axborot manbalaridan foydalaning. Longrid faqatgina qiziqarli faktlar, yorqin iqtiboslar, mavzu yuzasidan ilgari ma'lum bo'lmagan detallar bilan boyisagina qiziq bo'ladi.

Matnni yozishdan oldin maqsadni aniqlab oling. Biror bir masala xususida yozmoqchisiz. U ma'lum bir sohaga tegishli. Masalan global iqlim o'zgarishi mavzusi. Bu muammo umumiy mavzu bo'lsa, uning atrof-muhitga, aholi sog'lig'iga salbiy ta'siri, hududda yuz berayotgan o'zgarishlar va hokazolar asosiy mavzular bo'lishi mumkin. Aynan sizni qaysi mavzu qiziqtirayotganini aniqlang. Material g'oyasidan so'ng uning ko'rinishi yuzasidan reja tuzib oling, ya'ni uning umumiy ko'rinishi qanday bo'ladi, materialingizga infografika, iqtibos, video kerakmi? Rejani tuzib olgach, materialning tarkibiy qismlarni tayyorlashga kirishing. Zamonaviy jurnalist multimedia texnologiyalardan xabardor bo'lishi muhim. Longrid uchun material tayyorlashda mobil qurilma hamda montaj dasturi yuklangan noutbuklardan foydalanish kifoya. Bunda siz eng oddiy Windows Movie Maker 2012 yoki Kate's Video Toolkit videodasturlaridan foydalanishingiz mumkin. Windows Movie Maker 2012 dasturidan foydalanish juda ham oson. Video tasvirlaringizni dastur oynasiga tortib kiritish kifoya, ular darhol siz kiritgan tartibda bir chiziqqa tiziladi. Tasvirdan tasvirga o'tish, maxsus effektlardan foydalanish klik orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, dastur orqali videolavhangizga titrlar yozish, musiqa qo'yish mumkin. Olingan natijani yagona videofayl sifatida saqlashingiz yoki tanlagan saytingizga darhol yuklashingiz mumkin.

Kate's Video Toolkit videodasturi qo'shimcha ravishda videoni tahrir qilish imkoniyatini ham beradi. Siz o'z videolavhangizdan ortiqcha narsalarni olib tashlashingiz yoki yetishmayotganini qo'shishingiz mumkin. Shuningdek videoni turli formatlarga konvertatsiya qilish imkoniyati ham mavjud. Yagona

<sup>3</sup> Қосимова Н. Парламент журналистикаси: замонавий ёндашув ва усуллар. Ўқув-амалий қўлланма. – Т., 2017. – Б. 73.

kamchiligi, dastur oynasini butun ekranga kattalashtira olmaysiz. Qolganida esa mazkur dastur o'zining soddaligi bilan ko'plab muxlislariga ega.<sup>4</sup>

Longridning yana bir asosiy qismi infografikadir. Biz avvalgi faslda bu tushunchaga biroz to'xtalib o'tgandik. Birinchi bo'lib jurnalistikada matn va grafika orqali axborot uzatishdan 1982 yili "USA Today" gazetasining muharrirlari foydalana boshlashdi. Qisqa muddat ichida gazetaning adadi o'sib, auditoriyasi kengaydi. Amerikalik o'quvchilar tez orada infografikaning afzalligini tushunib yetishdi. Infografika gazeta sahifasida kamroq joy egallab, axborotni matnga nisbatan tezroq uzatar edi. Fotosuratdan farqli ravishda infografika tezis shakldagi sharhlarni ham o'z ichiga jamlanishi bilan boshqa axborotlardan farq qilardi. Tezkor, dolzarb faktlarga, raqamlarga qiziqish, odamlarda kichik hajmdagi katta axborotni qabul qilishga intilishning kuchayishi natijasida infografika axborot uzatishda birinchi o'rinlarga chiqmoqda. Hozirgi zamonda infografika diagramma va grafikalarda soatlab chizilib emas, balki zarur faktlarni keng miqyosda ko'rsatish uchun qulay va oson bo'lgan usul – diagramma ko'rsatkichlarini interaktiv ravishda boshqarish imkoni bo'lgan interfeyslarda yaratiladi.

Internet jurnalistikasida longridlar haqida gap ketganda, yana bir yangi tushuncha, ya'ni *Story map* haqida to'xtalish lozim.

*Story map* – hikoya qilinadigan biror bir voqea xaritasi. *Jurnalist Story map texnologiyasidan foydalangan holda mavzuning jug'rofiy xaritasini chizib, har bir nuqtada sodir bo'layotgan voqea-hodisaning joyi, rivojlanish tendensiyalarini ko'rsatib bera oladi.*<sup>5</sup>

Interaktiv xaritalar matn, rasm, video, audio qo'shimchalar bilan to'ldirilishi mumkin. Aksariyat holatlarda axborotni mazkur ko'rinishda uzatish o'z oldiga analitik vazifalarni qo'yadi va mavzuni xarita orqali to'liq ochib berishga imkon yaratadi. Voqealar xaritasi qanday yaratiladi? Masalan, global iqlim o'zgarishi mavzusida material tayyorlashda, avvalo faoliyatining asosiy qadamlarini birma-bir aniqlab olish lozim. So'ngra <https://storymap.knightlab.com> saytiga kirib, u yerdagi tayyor shablondan foydalaniladi. Mazkur xaritagga rasm, video, audio, matn kiritgan holda ularni jug'rofiy chiziqda osongina joylashtirib olish mumkin. Buning uchun ko'rsatilgan gadgetlardan foydalanish kifoya.

Ko'rinib turibdiki, multimedia vositalaridan foydalangan holda material tayyorlash va ulardan samarali foydalanish bugungi kunning talabi bo'lib, jurnalistga mavzuni har tomonlama ochib berishga hamda o'quvchi e'tiborini tanlangan mavzuga jalb etishga yordam beradi.

Internet jurnalistikasida mediaviy matnlarning uzatilishida yana bir yangi tushuncha mavjud. Bu – storitellingdir. Hozirda yozuvchi va jurnalistlar o'rtasida urf

<sup>4</sup> Қосимова Н. Интернет журналистика асослари. <http://nargis.uz/?p=666>. 2017. Б.108.

<sup>5</sup> Қўрсатилган манба. Б. 112.

bo'layotgan mazkur atama ingliz tilidan kirib kelgan bo'lib, "hikoya qilish" ma'nosini anglatadi. Ammo hikoya qilish oddiy biror voqeani so'zlab berish emas, balki o'z o'quvchilaringizni aynan siz bilan birgalikda ana shu voqea ichida bo'lishga erishish demakdir. Chunki qachonki voqea sizning hissiyotlaringizga ta'sir etsa, sizga "tegib ketsa"gina voqeaga munosabat bildirasiz, muammo yechimiga hissa qo'shasiz.

Storitellingning asoschisi Devid Armstrong o'zining "Managing by Storying Around: A New Method of Leadership" kitobida auditoriya va xodimlarga jonli voqealar orqali ta'sir etish usullarini sanab o'tadi<sup>6</sup>.

Demak, storitelling, auditoriyaga axborotni to'liq, sodda va tushunarli tilda yetkazishdir. Bugungi kunda rivojlanib borayotgan multimedia vositalari storitelling ahamiyatini yanada kuchaytirdi.

Storitellingdan foydalangan inson o'quvchi, tinglovchi, tomoshabinning ong ostiga ta'sir ko'rsata oladi; zarur axborotni birinchi urinishdayoq yetkazadi; o'quvchi "Muallif o'zi nima demoqchi?" degan savol bilan qiynalmaydi; fuqarolarda vatanparvarlik hissini kuchaytirishga xizmat qiladi; ryeklama materialida tovarning sotilishiga erishishda qo'l keladi. Eng asosiysi, hikoya strukturasi to'g'ri tuzilgan va oddiy o'quvchiga yaqin bo'lishi lozim.

Mazkur zamonaviy tushunchani o'rganishga qaratilgan adabiyotlarda storitelling bir nechta qoidalarga asoslansa, muvaffaqiyatli chiqadi, deb ta'kidlanadi:

- Qisqalik, hikoyaga yorqin qahramon tanlanishi;
- Voqeaning tugallanganligi;
- Matnning qiziqarliligi;
- fikrning yashirin ifodasi orqali yakunda o'quvchini harakatga keltirish va auditoriyaga psixologik ta'sir o'tkazishdir<sup>7</sup>.

Storitellingda matn aniq maqsadli auditoriyaga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

Multimediaviy storitelling bugun jahon jurnalistikasining yetakchi janriga aylanib ulgurdi. Xattoki AQSHning Berkli shahridagi Kaliforniya universiteti jurnalistika fakultetida Digital Storytelling, ya'ni raqamli storitelling asosiy fanlar sirasiga kiradi. Multimediaviy storitelling o'z ichiga video-, foto-, grafika va audioinformatsiyani oladi. Albatta ularni bir joyga jamlash va bir mantiqiy chiziq bo'ylab hikoyani tuzish orqali o'quvchi hissiyotiga sezilarli ravishda ta'sir ko'rsatish mumkin. Storitelling oddiy longriddan farqli o'laroq, chiziqsiz formatga ega, ya'ni o'quvchi hikoyadan o'ziga qiziqarli bo'lgan qismini ko'rish, o'qish va eshitish

<sup>6</sup> David Armstrong, Managing by Storying Around: A New Method of Leadership. New York: Doubleday Currency, 1992, -p. 246

<sup>7</sup>Сторителлинг – самый эффективный метод донесения нужной информации.  
<http://www.publicsuccess.ru/info/articles/storitelling>

imkoniga ega bo'ladi. Shuning uchun har bir qism unga tugallangan axborotni bera olishi lozim. Bunday jurnalistik storitelling o'z ichiga nafaqat asosiy ma'lumotlarni, balki mavzuga oid statistik ma'lumotlar, boshqa resurslarga havolalarni ham qamrab olib, o'quvchiga mavzuga yanada chuqurroq kirib borish imkonini beradi. Qanchalik chuqur kirishni har bir o'quvchi o'zi tanlaydi.

Har qanday internetdagi veb-sahifa multimediamiy saytlardir. Ularga matn, audio, videoni joylashtirish mumkin. Ularda aksariyat holatlarda interaktiv grafika ham aks etadi. Ammo mazkur saytlarga joylashtiriladigan voqealar, yangiliklar asosan faqat grafika yoki fotosurat bilan bezatiladi. Har bir matn, audio yoki video saytda mustaqil mazmun kasb etadi. Multimediamiy storitellingda esa har bir ko'rinish, ya'ni video, matn, fotosurat, audio va grafika bitta hikoyaga integrallashgan bo'ladi.

Multimediamiy storitelling jurnalistdan universallik va zamonaviy texnika vositalarini yaxshi tushunishni talab etadi. Agarda siz videoga tushirib, uni montaj qila olsangiz, audioroliklar yozsangiz, yaxshigina matn yozib, suratga tushirsangiz, demak, siz konvergent jurnalistikada ishlay olasiz.

Multimediamiy storitellingni yaratish asoslarini o'rganish jurnalistlarga nafaqat yangi texnologiyalarni o'rganish, balki o'z materialiga global tarmoq orqali butun jahondagi barcha qiziquvchilar imkonini jalb etish imkoni hamdir.

Umuman olganda, globallashtirish jarayonida axborot oqimi kuchaygani sari auditoriyani jalb etish masalasi qiyinlashib bormoqda. Bugun internet jurnalistikada yangi tushunchalarning paydo bo'lishiga ham ayni shu sabab ko'rsatiladi. Myediamiy matnlar bilan ishlashda longrid va stroitellingdan foydalaniladi. Longrid matn bilan birgalikda aynan shu mavzudagi videorolik, infografika, taqdimot, fon beruvchi musiqa, suratlar, iqtiboslar jamlangan material hisoblansa, stroitelling – hikoya qilish, ya'ni o'quvchilarini o'zi bilan birgalikda ana shu voqea ichida bo'lishga erishish demakdir. Albatta, ana shundagina mediamatnlar kuzatuvchilari tomonidan yuqori baholanadi. Uni tayyorlab uzatuvchilar esa maqsadlariga erishadilar.

2-bob bo'yicha quyidagi xulosalarga kelindi:

- Bugungi kunda [www.redpen.uz](http://www.redpen.uz), [www.ilike.uz](http://www.ilike.uz), [www.anhor.uz](http://www.anhor.uz), [www.daryo.uz](http://www.daryo.uz), [www.norma.uz](http://www.norma.uz), [www.kun.uz](http://www.kun.uz), [www.uz24.uz](http://www.uz24.uz), [info.islom.uz](http://info.islom.uz), [www.uza.uz](http://www.uza.uz), [www.12news.uz](http://www.12news.uz) saytlari O'zbekiston OAV maydonida o'z o'rniga ega bo'lib bormoqda. Shuningdek, bosma nashrlarning elektron versiyalari ham mavjud bo'lib, ular yuqoridagi sanab o'tilgan saytlar kabi mashhur bo'la olmayapti;
- Hozirgi kunda "The New York Times" bosma nashrdagi ko'rinishini saqlagan holda onlayn sahifalashtirilgani hamda yangiliklarni mediamiy ko'rinishda alohida taqdim etilishi bilan boshqa gazetalardan farqlanadi;
- Bugungi kunda onlayn nashrlar kontenti, ya'ni mazmunini ifodalashda mediamatnlarning o'rni katta. Aytish mumkinki, hozirda mamlakatimizda

matbuotning bosma nashrlaridan tashqari erkin faoliyatdagi yangi axborot tizimlari auditoriyani ko'proq jalb etmoqda;

- Myediamatnlarni yaratishda axborotning dolzarbligi, sayt matni o'zbek, rus va ingliz tillarida ishlanishi, uning har bir sahifasida tillardan bir-biriga o'tish imkoni bo'lishi, matn qisqaroq surat va video hamohangligida berilishi lozim;
- Mediamatnda matn qismidan tashqari fotosurat va video yohud grafikaga nisbatan ham talablar katta bo'lgani sabab ulardan ham o'rinli foydalanish kerak;
- Internet jurnalistikasida yangi tushuncha hisoblanuvchi longrid usuli mediamatnning asosiy ko'rinishidir;
- Interaktiv xaritalar matn, rasm, video, audio qo'shimchalar bilan to'ldirilishi mumkin. Aksariyat holatlarda axborotni mazkur ko'rinishda uzatish o'z oldiga analitik vazifalarni qo'yadi va mavzuni xarita orqali to'liq ochib berishga imkon yaratadi;
- Mediaviy matnlar bilan ishlashda longrid va stroitellingdan foydalaniladi. Storitelling – hikoya qilish, ya'ni o'quvchilarini o'zi bilan birgalikda ana shu voqea ichida bo'lishga erishish demakdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. David Armstrong, *Managing by Storying Around: A New Method of Leadership*. New York: Doubleday Currency, 1992, -p. 246
2. <sup>1</sup>Сторителлинг – самый эффективный метод донесения нужной информации.  
<http://www.publicsuccess.ru/info/articles/storitelling>